

SH-5152-3-4-sonli
PUDRAT SHARTNOMASI

Samarqand sh.

“ 1 ” “ *aprel* ” 2022 yil

“Ko‘p xonadonli uylarni mukammal va joriy ta‘mirlash hamda issiqlik ta‘minoti ob‘ektlarini qurish bo‘yicha injiniring kompaniyasi” DUK Samarqand viloyati xududiy filiali (keyingi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor **R.Xaljigitov** bir tomondan va “**STORY QO‘RG‘ON BIZNES**” MCHJ (keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladi) nomidan Nizom (ustav) asosida ish yurituvchi direktor **I.Uvaytov** ikkinchi tomondan **Samarqand shaxar Beruniy ko‘chasi 19- 21-sonli ko‘p xonadonli uy-joylarni joriy ta‘mirlash** ob‘ekti buyicha ishlarini bajarishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

1. TA‘RIFLAR

1. MAZKUR SHARTNOMADA TA‘RIFLAR KO‘RSATILADI:

“ijro hujjatlari”: - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun ma‘sul bo‘lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o‘zgarishlarning ushbu ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o‘rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo‘llanilgan materiallar, konstruksiya va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to‘g‘risida dalolatnomalar, ayrim ma‘suliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to‘g‘risida dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to‘g‘risida dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar:

“qurilish maydoni”: Mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo‘yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob‘ektning qurilish maydoni chegarasini ajratib qo‘yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilangan boshqa belgilar bilan belgilab qo‘yiladi.

“vaqtinchalik ishlar”: Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o‘rnatiladigan va ishlar bajarish uchun zarur zarur bo‘lgan har tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar.

“berkitilgan ishlar”:- sifati va yakunligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo‘lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar:

shartnomani narxini bo‘lib chiqish: ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatining aniq belgilangan holdashartnoma bo‘yicha ob‘ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI

2. Pudratchi mazkur shartnoma buyicha ob‘ektda qurilish ishlarini loyiha-smeta hujjatlarida ko‘zda tutilgan holda bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga bajariladigan ishlar uchun zarur sharoitlar yaratish, bajarilgan ishlarni kabul qilish, ularni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO‘YICHA ISHLAR QIYMATI

3. Mazkur shartnoma buyicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (**2022 yil «15» mart B 22110012037769-sonli bayon**) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati ushbu ob‘ekt tulakonligigacha foydalanishga topshirilishida QQSlari bilan **253 000 000** so‘mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

ob'ektning qayta qurishishlari qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

5. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnoma qiymatining un foizidan oshmagan xolda va ushbu uzgarishlarga belgilangan tartibda smeta-hujjatlari tayyorlangan xolda rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

6. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

Ob'ektdagi qurilish ishlari boshlanishdan oldin ob'ektda qurilish ishlarini olib borish davri uchun, buyurtmachi ishtirokida qurilish qilinayotgan bino qismini va undagi mavjud elementlarini dalolatnoma asosida ob'ektdan foydalanuvchi tashkilotdan qabul qilib oladi va ta'mirlash ishlari yakunlangandan so'ng foydalanuvchi tashkilotga topshiradi. Pudratchi tomonidan qurilish ishlari olib borilayotgan davrda ushbu bino qismidagi elementlarini saqlash ishlarini amalga oshiradi;

Ushbu qurilish ob'ektini qurish davrida elektr energiyasi, suv va tabiiy gazdan foydalanish zaruriyati bulgan takdirida belgilangan tartibda tegishli tashkilotlar bilan shartnoma tuzish, tulovlarini amalga oshirish, zarur xollarda ayrim ish turlarining bajarilishida loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan mashina-mexanizmlar o'rniga, o'rindosh mashina-mexanizmlardan foydalanilishi, belgilangan sifat va texnologik jarayonning buzilmasligini ko'rsatuvchi sifat laboratoriyasi va loyihachi tashkilotning tegishli xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin, har kanday ish turidagi ushbu o'zgarishlar yuzasidan Buyurtmachini xabardor qilish;

loyiha-smeta hujjatlarida bajarilishi ko'zda tutilgan ish hajmlari Pudratchi tomonidan to'liq va sifatli qilib bajarilib, ayrim ish hajmlari va harajatlar smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'ni ayrim harajatlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish hajmlari harajatlarini qoplash uchun ob'ektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi hujjatlar asosida Buyurtmachini xabardor qilgan holda yo'naltirishi mumkin va ushbu ish turlari tender ish xajmlarida bulsa narxlari tender narxlarida olinishi, agarda tenderda bulmasa smeta-hujjatlaridagi narxlarda olinib hisob-fakturasida kursatilishi lozim.

Ob'ektning ijro hujjatlarini rasmiylashtirish va buyurtmachiga topshirish, qurilish materiallarining muvofiqlik sertifikatini, ishlatilgan qurilish materiallari va uskunalarining texnik pasportini taqdim etadi;

shartnoma shartlariga asosan ob'ektning buyurtmachiga tasdiqlangan loyihaga muvofiq topshiradi;

barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda uning 1-ilovasida belgilangan ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda, o'zining kuchlari bilan qurilish qoidalari va me'yorlariga, belgilangan standartlarga amal qilgan holda sifatli bajarish, ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi hamda ajratilgan mablag' doirasida qurilish-montaj va ta'mirlash ishlarini bajaradi;

ob'ektga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butloveni buyumlar, boshqa xom-ashyolar va qurilish texnikasini o'z vaqtida hamda zarur xajmlarda yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni amalga oshiradi;

zarur xollarda qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar quradi;

Buyurtmachini, yordamchi pudratchilar bilan pudrat shartnomalari tuzilishi davomida, ushbu shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, yordamchi pudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qiladi;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlaydi;

mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatadi;

qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlaydi;

Oyma-oy yoki bir oy davomida bajarilgan kurilish-montaj ishlari yuzasidan monitoring xolatda hisob-fakturasini oyning 25 sanasigacha Buyurtmachiga taqdim qiladi;

Ob'ektda kurilish-montaj ishlari to'lik tugatilgandan keyin bajarilgan qurilish-montaj ishlari yuzasidan oxirgi hisob-fakturani ob'ektni foydalanishga topshirish sanasidan kechikmasdan taqdim qiladi;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni tulik xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

7. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektni foydalanishga tayyor holda Davlat qabul hay'ati dalolatnomalarini bilan buyurtmachiga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

7.1 Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha Davlat qabul hay'ati dalolatnomalarini buyurtmachiga topshirishni ob'ektni foydalanishga topshirish muddati tugagan sanadan kechiktirgan har bir kun uchun shartnoma qiymatining 0,2 foiz miqdorida penya to'laydi bunda penyaning qiymati shartnoma baxosining 20 foizidan oshmasligi lozim.

Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish hajmlarida arifmetik xato va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, keyingi oylarda bajarilgan ish hajmlari tegishli o'zgartirishlar (korrektirovka) kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

7.1. Mazkur shartnoma imzolangan kundan pudratchi tashkiloti "Buyurtmachi" ushbu ob'ekt bo'yicha avans mablag'larini moliyalashtirib berganiga qadar 20 foiz aylanma mablag'lari hisobidan qurilish-montaj ishlarini boshlashiga kelishildi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

8. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilishda texnik nazorat va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan pudratchiga 3 ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab, bir oy davomida pudratchiga pudrat ishlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATI

9. Shartnoma milliy valyuta (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uchun imzolangan paytdan boshlab:

keyinchalik EAV ga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda shartnoma qonun hujjatlarga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi:

10. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi. Tanlov natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran **60** (oltmish ish kuni) kunni tashkil etadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ishlarning boshlanishi "01" aprel 2022 yil, tugatilishi "09" iyun 2022 yil.

Pudrat shartnomasi amal qilish muddati 31.12.2022 y

11. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi

VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

12. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun ishlarni bajarish (1-ilova) va moliyalashtirish (2-ilova) jadvallari asos hisoblanadi.

Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha joriy (rejalashtirilgan) yilning ish qiymatining **30** foiz miqdorida avans mablag'i to'lab beradi. Bu 75 900 000 so'mni tashkil etadi.

13. Buyurtmachi va Pudratchi har oyda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini "Ma'lumotnoma-hisob-faktura" bilan rasmiylashtiriladi, bunda ishlarning konstruktiv elementlari (turlari) bo'yicha fizik va qiymat ko'rsatkichlari 1-ilovaga asosan aks ettiriladi va "Investor" tomonidan mablag ajratilgandan so'ng 2-ilovaga asosan moliyalashtiriladi.

14. Joriy moliyalashtirish ajratilgan avans mablag'ining har oyda amalda bajariladigan ishlar miqdoridan berilgan avans miqdorini ushlab qolib, ob'ektning shartnomaviy qiymati 65 foiz miqdorda amalga oshiriladi.

15. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

16. Ob'ektning shartnomaviy bajarilgan ishlar kiymatidan 5 foiz miqdoridagi mablag' mazkur shartnomada belgilangan kafolat muddati (ob'ektga tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib taqdim etilgandan) tugagandan so'ng, lekin kafolat muddati tugagan moliyaviy yil yakunlanmasdan oldin moliyalashtiriladi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 60 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritishni talab qilish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH

19. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – Texnik auditorini tayinlaydi, u uyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob uskunalar shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

20. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davr mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish huquqiga egadir.

21. Pudratchi Texnik auditor ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

22. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limda ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

23. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini qurilishda Davlat nazorat inspeksiyasi bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

24. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

25. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joyajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

26. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 3 kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni bog'lash (privyazka) qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

27. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari o'lchamlari bo'lishi va ularning muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan va geodeziya ishlarida xatolarani qilsa Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

28. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarning joylashi sxemalarini va jadvallarni saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallanganidan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

29. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni aqtingcha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

30. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va kommunikatsiya tizimlari sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spesifikatsiyalarga davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifati tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

31. Alohida berkitilgan konstruksiyalar va berkitilgan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilishni boshlashdan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

32. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan ma'sul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

33. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

34. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdiqlanmagan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlarga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isoblatlasa javobgar hisoblanmaydi.

35. Agar Buyurtmachi Pudratchi (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta

Qurilish ob'ekti yoki uning uchastkalari (ishga tushirish majmualari) ob'ektning tugallanganligi va u qabul qilib olishga tayyorligi to'g'risida pudratchi tashkilotning xabarnomasidan keyin ishchi komissiya tomonidan foydalanishga qabul qilinadi.

Pudratchi tashkilot ishchi komissiyaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda ishtirok etgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlarining turlari va hajmlari hamda mas'ul ijrochilariko'rsatilganholdagi ro'yxati;

- qabul qilishga taqdim etilgan ob'ektning texnik loyihasi va ishchi chizmalari to'plami, ijro sxemlari;

- yopilib ketadigan ishlarni qabul qilib olish dalolatnomalari;

- ishlarnibajarish va mualliflik nazorati jurnallari;

- O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi Davlat arxitektura-qurilish nazorati hududiy inspeksiyalari tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish dalolatnomalari.

44. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi asosida Buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilib olinadi.

45. Pudratchi qayta qurish tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

46. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt davlat mulkiga aylanadi va o'rnatilgan tartibda ob'ektlardan foydalanish korxonasi balansiga o'tadi.

XII. KAFOLATLAR

47. Pudratchi:

- barcha ishlar to'liqhajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarishni;

- loyiha hujjatlari hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlarga muvofiq bajarilgan barcha ishlar sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va kommunikatsiya tizimlari sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlariga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilinishni;

ob'ektdan foydalanganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

48. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolat muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida ___ oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomoning kafolat muddati kamida ___ oy etib belgilanadi.

49. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, uni bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirishi imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomalarida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlaridagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi

mazkur shartnomaning VII-bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

50. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh torgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

51. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan 10 kundan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugallashning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan 10 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan holda,
- pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
- pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgani shlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

52. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;
- buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

53. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish ob'ekti 10 kun muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

54. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

55. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

56. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

57. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

Qayta qurish ishlarini olib borayotgan Pudratchi tashkilot qonunchilikka asosan va shartnomaga muvofiq buyurtmachi oldida quyidagi ishlar bo'yicha mulkiy javobgardir:

sifatsiz bajarilgan qurilish-montaj ishlari;

ob'ektni hamda uning bosqichlari va navbatlarini belgilangan muddatda tugallamagani;

buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma asosida qurilish-montaj va boshqa ihtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan uskunalarni montaj qilish muddatlarini buzilishi;

ob'ektning loyixa-smeta hujjatlarida belgilangan yerlarni rekultivatsiya qilish ishlari bajarish hajmlari va muddatlarining buzilishi;

qayta qurish jarayonida yoki oraliq qabul qilishda pudratchi, mualliflik nazorati va boshqa nazorat organlari tomonidan aniqlangan konstruksiya va ishlardagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etishni orqaga surish;

shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarmagani yoki to'la-qonli bajarmagani. Pudratchi tashkilot tomonidan ishlarning bajarilishida pudrat shartnomasidan chekinish yoki boshqa kamchiliklar mavjudligida Buyurtmachi, agar qonunchilik yoki shartnomada boshqa shartlar ko'zda tutilmagan taqdirda, pudratchi tashkilotdan o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilarni talab qilish huquqiga ega: nuqsonlarni oqilona muddatlarda o'z hisobidan bartaraf etishni;

Agar Pudratchi tashkilot nuqsonlarni kelishilgan muddatlarda bartaraf etmasa, Buyurtmachi yoki ob'ektdan foydalanuvchi tashkilot o'z kuchi bilan Pudratchi hisobidan nuqsonlarni bartaraf etish hamda nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etilmaganligidan keltirilgan zararni va bajarilgan ish qiymatini undirish xuquqiga ega.

58. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi moliyalashtirilmagan mablag' qiymatining 10 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

Moliyalashtirishning kechikishi "Investor" ning aybi bilan sodir etilsa, moliyalashtirish bo'yicha "Buyurtmachi" "Pudratchi" ning oldida javobgar bo'lmaydi.

59. Pudratchi tomonidan ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha majburiyatlar buzilgan bo'lsa Pudratchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

60. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 50 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

61. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur bandeda nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan harajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

Buyurtmachi Pudratchining bajarilgan ishlari hajmidan yoki moliyaviy hisob-kitoblardan aniqlangan kamchiliklar natijasida Buyurtmachiga qaytariladigan mablag'lar va boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa, Buyurtmachi ushbu mablag'larni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan chegirib qolish huquqiga ega.

62. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

63. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Samarqand shahar iktisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. ALOHIDA SHARTLARI

65. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

66. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

67. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

68. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydobo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgarishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

69. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlanganidan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkn qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajargan ishlari uchun haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

70. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

71. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) **nusxada** tuziladi.

XVII. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURUDIK MANZILLARI

Buyurtmachi:

Uy-joy kommunal xizmat ro'rsatish vazirligi
"Ko'p xonadonli uylarni mukammal va joriy
ta'mirlash hamda issiqlik ta'minoti ob'ektlarini
qurish bo'yicha injineriing kompaniyasi" DUK
Samarqand viloyati hududiy filiali

Bank: Markaziy bank bosh boshqarmasi.

X/r: 4001 1218 6018 4017 0699 0211 0001

MFO :00014; INN: 307907691

Rahbar:  R.A. Xalijigitov

M.U. (imzo)

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi

x/r 2340 2000 3001 0000 1010

Bank nomi MK XKKM Toshkent shahar bosh boshqarmasi

manzil: Sam.shahar Ko'ksaroy maydoni 1-A uy

(INN):201 122 919 MFO:00014 OKONX:97160

Pudratchi:

"STORY QO'RG'ON BIZNES" MCHJ

Manzil: Kattaqo'rg'on shahar

Bank: ATIB "Qishloq qurilish bank"

Kattaqo'rg'on filiali

X/r: 2020 8000 6008 6471 0001

INN: 305 455 269

MFO: 00316

Rahbar:  I. Uvaytov





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Самарқанд вилояти

703003, Samarqand shahri, Ko'ksaroy maydoni-1 "D" bino 2-qavat, Tel:(66) 233-03-89, 233-05-53, E-mail:
sam.expert@bk.ru, www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi

Direktor: ILMURATOV SHOKIR MARDIYEVICH

Sana: 10-12-2021 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 27125

Obyekt nomi «Samarqand shahar Bog'dod, Rudakiy va Beruniy ko'chalaridagi ko'p qavatli uylarni joriy ta'mirlash»

Buyurtmachi - Ko'p xonadonli uylarni mukammal va joriy ta'mirlash hamda

issiqlik ta'minoti obyektlarni qurish bo'yicha Injenering kompaniyasi

Bosh loyihachi - CityPlanStroy» MCHJ

Litsenziya AL-000396

Moliyalashtirish manbai - Respublika byudjeti.

Bosh pudratchi - Tender asosida

Qurilish turi Joriy ta'mirlash.

Murojaat raqami: № 24959

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan nuqsonlar dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

1.1. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan nuqsonlar dalolatnomasi.

2.1. Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Smetada quyidaqilar ko'zda tutilgan:

Tashqi inventar iskalalarini o'rnatish va demontaj qilish, jabhalar yuzasini qumtoshlagich bilan tozalash: erdan silliqlash va iskala, tosh devorlarga tsement-ohak ohaklari bilan yaxshilangan gips, jabhalarda shlak: erdan oddiy va iskala, pardozlash. o'rmonlar va er bilan tayyorlangan yuzasiga dekorativ monoxromatik "umer" qoplamali jabhalar, gipsli devorlarga yog'li kompozitsiyalar bilan yaxshilangan bo'yash, bitum-polimer qoplamali materialdan yasalgan tekis tomlarni o'rnatish, quruq folga-insol t f ustiga 1 qatlam qoplamasi. qalinligi 4 mm, galvanizli po'latdan yasalgan nozik qoplamalar [oluklar, tizmalar.] o'rnatish, g'isht yoki engil betondan yasalgan devorlarga drenaj quvurlarini osib qo'yish, binolar va inshootlardagi suv va gaz quvurlaridan quvurlarni demontaj qilish, bosimdan suv ta'minoti quvurlarini yotqizish. polietilen quvurlar, polietilen armatura, muftalar, tee, tirsaklar, o'tishlarni o'rnatish, quyma temir kanalizatsiya quvurlaridan quvurlarni demontaj qilish, kanalizatsiya quvurlarini yotqizish polietilen.

3.2. Smeta qismi:

Ishlarning tannarxini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qaroriga asosan resurs usulidan foydalangan holda amalga oshirildi. "Investitsiya loyihalarini amalga

oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida" 05.12.2004 yildagi 226-son. "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq shartnomaviy joriy narxlarda qurilish qiymatini belgilash qoidalari.

"R.Uz qurilish sohasida foydalaniladigan moddiy-texnika resurslarining joriy narxlar katalogi"dan foydalangan holda resurs usulidan foydalangan holda hisob-kitob hujjatlari asosida ob'ektning joriy narxlarda qiymati aniqlandi.

2 kv. 2021 yil, ishlab chiqaruvchilarning ulgurji narxlar va Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra. "Katalog"da bo'lmagan qurilish materiallari narxlar Buyurtmachi tomonidan kelishiladi.

Ish haqi qiymati (1 kishi/soat uchun) 2020-yil iyun oyidan 2021-yil iyulgacha bo'lgan davrda "Qurilish" tarmog'ida o'rtacha oylik ish haqi darajasining 12 foizi ijtimoiy sug'urta bo'yicha ajratmalar hisobga olingan holda 18 152,28 so'm etib belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Samarqand viloyati bo'yicha.

4. Loyihalana yotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertizaning mulohazalari va takliflariga ko'ra ish tartibida smeta hujjatlariga quyidagi tuzatish va qo'shimchalar kiritildi:

- soatiga mehnat xarajatlari, resurs ko'rsatkichlari mash / soat aniqlandi;
- qurilish materiallari va mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj aniqlandi;
- materiallarni tashish xarajatlari aniqlangan;
- Pudratchining boshqa xarajatlari aniqlangan.
- Bog'dod ko'chadagi 4-a-sonli turar-joy binosi - QQS bilan 100 790 120 ming so'm.
- Rudakiy ko'chasidagi 94-sonli turar joy binosi - QQS bilan 100 790 120 ming so'm.
- Rudakiy ko'chasi 96-sonli turar joy binosi - QQS bilan 100 790 120 ming so'm.
- Rudakiy ko'chasi 98-sonli turar joy binosi - QQS bilan 100 790 120 ming so'm.
- Rudakiy ko'chasi 102-uy uy - QQS bilan 131411.675 ming so'm.
- Rudakiy ko'chasi 104-sonli turar joy binosi - QQS bilan 100 790 120 ming so'm.
- Rudakiy ko'chasidagi 106-sonli turar joy binosi - QQS bilan 219 832 441 ming so'm.
- Rudakiy ko'chasi 124A-sonli turar joy binosi - QQS bilan 26946,087 ming so'm.
- Beruniy ko'chasi 27-sonli turar joy binosi - QQS bilan 130 029,932 ming so'm.
- Beruniy ko'chasi 33-sonli turar joy binosi - QQS bilan 129 592,309 ming so'm.
- Rudakiy ko'chasi 88-sonli turar joy binosi - QQS bilan 235283.252 ming so'm.
- Beruniy ko'chadagi 11-sonli turar-joy binosi - QQS bilan 131 256 135 ming so'm.
- Beruniy ko'chadagi 13-sonli turar-joy binosi - QQS bilan 131 256 135 ming so'm.
- Beruniy ko'chadagi 15-sonli turar-joy binosi - QQS bilan 175487,658 ming so'm.
- Beruniy ko'chasi 17-sonli turar joy binosi - 111531.881 ming so'm QQS bilan.
- Beruniy ko'chadagi 19-sonli turar-joy binosi. - QQS bilan 111 531,881 ming so'm.
- Beruniy ko'chasi 21A-sonli turar joy binosi - QQS bilan 131 256 135 ming so'm.
- Beruniy ko'chasi 21-sonli turar joy binosi - QQS bilan 156342.931 ming so'm.
- Beruniy ko'chadagi 23A-sonli turar-joy binosi. y - 70167,141 ming so'm QQS bilan.
- Beruniy ko'chasi 23-sonli turar joy binosi - QQS bilan 131 256 135 ming so'm.
- Beruniy ko'chadagi 25A-sonli turar-joy binosi. - QQS bilan 131 256 135 ming so'm.
- Beruniy ko'chadagi 25-sonli turar-joy binosi. - QQS bilan 171 932 433 ming so'm.
- Bog'dod ko'chadagi 15-sonli turar-joy binosi. - 70167,141 ming so'm QQS bilan.
- Bog'dod ko'chadagi 6-sonli turar-joy binosi. - 183 546,589 ming so'm QQS bilan.
- Bog'dod ko'chadagi 8-sonli turar-joy binosi. - 183 546,589 ming so'm QQS bilan.
- Bog'dod ko'chadagi 10-sonli turar-joy binosi - 183 546,589 ming so'm QQS bilan.
- Bog'dod ko'chadagi 14-sonli turar-joy binosi. - 183 546,589 ming so'm QQS bilan.
- Bog'dod ko'chadagi 16-sonli turar-joy binosi. - 70167,141 ming so'm QQS bilan.
- Bog'dod ko'chadagi 18-sonli turar-joy binosi. - QQS bilan 11 745 061 ming so'm.

- Bog'dod ko'chadagi 20-sonli turar-joy binosi. - QQS bilan 42 122 492 ming so'm.
- Bog'dod ko'chadagi 22-sonli turar-joy binosi. - QQS bilan 12 066 842 ming so'm.
- Bog'dod ko'chadagi 24-sonli turar-joy binosi. - QQS bilan 141 635,991 ming so'm.
- Rudakiy ko'chadagi 136-sonli turar-joy binosi. - QQS bilan 26735,576 ming so'm.

- Buyurtmachi tomonidan joriy shartnoma narxlarida QQS bilan deklaratsiyalangan 4 209 554 434 ming so'mlik ta'mirlash ishlarining smeta qiymati ish hajmi va xarajatlari aniqlanganligi sababli QQS bilan 270 406 938 ming so'mga kamaytirildi.

Ekspertizaning fikr-mulohazalari va takliflari bo'yicha tuzatishlar kiritilib, joriy shartnoma narxlarida ta'mirlashning smeta qiymati qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olgan holda 3 939 147 496 ming so'mni tashkil etdi.

Standart mehnat zichligi 99539,98 kishi-soat.

6.2. Qayta ish jarayonida Buyurtmachi belgilangan tartibda materiallarni qaytarishdan tushgan mablag'larni hisobga olishi kerak.

6.3. Buyurtmachiga mulohazalar va takliflar:

- ob'ektni birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlash.

6.4. Loyiha mualliflari ekspertiza sharhlari asosida Buyurtmachiga tuzatilgan smeta hujjatlarini taqdim etishlari shart.

6.5. Ekspert xulosasi ikki yil davomida amal qiladi.

7. Xulosalar.

7.1. "Samarqand shahar Bog'dod, Rudakiy va Beruniy ko'chalaridagi ko'p qavatli uylarni joriy ta'mirlash." Ekspertiza natijalari va 6.2.-6.5-bandlar bo'yicha mulohazalarni hisobga olgan holda, ushbu xulosa qo'shimcha ko'rib chiqishva tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.03 yildagi qarorlariga muvofiq. 261-son va SHNK 4.01.16 -09 uchun qurilish qiymati tavsiya etiladi va bajarilgan ishlar uchun buyurtmachi va pudratchi o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni uchun asos bo'la olmaydi. Nazorat o'lchovi natijalarini hisobga olgan holda, belgilangan tartibda asoslovchi hujjatlar bo'yicha buyurtmachi va pudratchi tomonidan birgalikdagi haqiqiy xarajatlarga muvofiq belgilanadi. Shartnoma narxleri va bajarilgan ishlar hajmlari bo'yicha yakuniy qaror buyurtmachi va pudratchi tomonidan birgalikda qabul qilinadi.

Bosh mutaxassis: Abdiyev Mirzabek Saitmurodovich

Ishtirokchi ekspertlar:

SHARIPOV SUXROB RUSTAMOVICH